

HUDUDLARDA YASHIL TADBIRKORLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA MOLİYAVIY MEXANIZMLARNING ROLI

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

PhD., dotsent. University of Business and Science. O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17062655>

Annotatsiya. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida yashil tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida yashil tadbirkorlikni moliyaviy rag'batlantirish yo'nalishidagi asosiy muammolar tahlil qilinadi. Jumladan, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, bank sektorining sust faolligi, ekologik loyihalarga soliq imtiyozlari va kafolat tizimlarining yetarlicha rivojlanmagani, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning zaifligi kabi omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Yashil iqtisodiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari dunyo bo'ylab tobora kengayib borayotgan tendensiya hisoblanadi. Bu jarayonlar ayniqsa, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga zamin yaratishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni jadallashmoqda, va bu, o'z navbatida, hududlarda yashil tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida urg'u berilayotganini ko'rsatadi.

Yashil tadbirkorlik – bu tabiiy resurslardan samarali foydalanishni, energiya tejashni va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni ta'minlashga qaratilgan biznes faoliyatidir. Uning rivojlanishi hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Biroq, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun kerakli moliyaviy mexanizmlar va resurslar zarur.

Moliyaviy mexanizmlar – bu yashil tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ekologik loyihalarga jalb etish va ularni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan turli moliyaviy vositalar va imkoniyatlar majmuasidir. Ularga yashil kreditlar, grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy

yordam shakllari kiradi. Hududlarda yashil iqtisodiyotga o'tish uchun moliyaviy mexanizmlarning ahamiyati nihoyatda katta. Ular nafaqat tadbirkorlar uchun imkoniyatlar yaratadi, balki atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Shu maqsadda, ushbu maqolada hududlarda yashil tadbirkorlik muhitini shakllantirishda moliyaviy mexanizmlarning o'rnini va ular qanday qilib mamlakat iqtisodiyotini ekologik jihatdan barqaror qilishga yordam berishi masalalari tahlil etiladi. Maqola davomida moliyaviy mexanizmlarning turlari, ularning funksiyalari va O'zbekistondagi amaliy holatlar misolida tahlil qilinadi.

Yashil tadbirkorlik nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham hududlar rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, resurslarga boy bo'lmagan, lekin salohiyati mavjud bo'lgan viloyatlarda ekologik faoliyatni rivojlantirish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- kichik biznes subyektlari yangi, ekologik yo'nalishdagi faoliyatlar bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- yashil texnologiyalar va xizmatlar yangi kasblarni talab qiladi, bu esa bandlikni oshiradi.
- chiqindilarni qayta ishlash, ifloslanishni kamaytirish hududda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.
- energiya, suv va yer kabi resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlik oshadi.
- yashil loyihalarga milliy va xalqaro darajada grantlar va kreditlar ajratiladi, bu esa moliyaviy oqimni jalb etadi.

Masalan, Toshkent shahri va viloyati, Samarqand, Namangan, Buxoro kabi hududlarda ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sish bilan birga atrof-muhit muhofazasini ham ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, qishloq hududlarida ekologik turizm va "yashil" qishloq xo'jaligi kabi yo'nalishlar aholi bandligini ta'minlash va hududlar salohiyatini to'liq ishga solish imkonini beradi.

Yashil tadbirkorlik faoliyatining asosiy yoʻnalishlari (Oʻzbekiston sharoitida)

Yoʻnalish	Tavsif	Misol
Qayta tiklanuvchi energiya	Quyosh, shamol, biogaz	Quyosh panellarini oʻrnatish
Eko-qurilish	Energiya tejamkor uylar	Yashil sertifikatli binolar
Qishloq xoʻjaligi	Organik mahsulotlar	Pesticidsiz yetishtirish
Eko-turizm	Tabiatga zarar yetkazmasdan turizm	Ekologik sayohatlar tashkiloti

Bugungi kunda ekologik barqarorlik va iqtisodiy oʻsishni uygʻunlashtirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, hududlarda kichik biznes subyektlarini yashil faoliyatga yoʻnaltirish orqali iqtisodiyotning sifat jihatdan yangilanishiga erishish mumkin. Bu borada moliyaviy mexanizmlar muhim oʻrin tutadi. Jumladan, banklar tomonidan ekologik loyihalarga past foizli yoki kechiktirilgan toʻlovli kreditlar ajratiladi. Davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan moliyaviy yordamlar. Yashil loyihalarni amalga oshirayotgan tadbirkorlarga soliq yengilliklari beriladi.

2-jadval

Yashil loyihalarga ajratilgan mablagʻlar oʻsish tendensiyasi

Yil	2020	2021	2022	2023	2024
Mablagʻ (mlrd soʻm)	210	340	480	720	1050

Ushbu maʼlumotlar asosida hududlarda yashil moliyalashtirish hajmi yildan-yilga oshayotgani kuzatilmoqda, biroq kichik biznes ulushi pastligicha qolmoqda. Toshkent viloyatida 2024-yilda jami 300 mlrd soʻmlik ekologik loyihalar moliyalashtirilgan, lekin ulardan atigi 25% kichik tadbirkorlik subyektlariga toʻgʻri kelgan.

3-jadval

Toshkent viloyatida yashil moliyalashtirish strukturasi (2024)

Moliyalashtirish turi	Umumiy miqdor (mlrd so‘m)	Ulushi (%)
Kichik biznes	75	25%
Yirik biznes	225	75%

Yashil tadbirkorlikni moliyaviy rag‘batlantirish bo‘yicha xorijiy tajriba ko‘radigan bo‘lsak, Germaniya “KFW Green Loans” dasturi orqali kichik korxonalarga 1% foizli kreditlar berilyapti. Janubiy Koreyada davlat kafolatlari orqali yashil innovatsiyalarni rivojlantirilyapti. Bizning qo‘shni Qozog‘istonda esa “Damu” fondi orqali kichik biznesga grantlar ajratilyapti.

O‘zbekistonda yashil tadbirkorlikni moliyaviy rag‘batlantirish bo‘yicha qator yutuqlarga erishilayotgan bo‘lsa-da, bu sohada hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar ham mavjud. Quyida asosiy muammolarni keltirib o‘tamiz:

- yashil loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus kredit liniyalari, grantlar va investitsiya fondlari cheklangan;
- xususiy sektor uchun ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan banklar va moliya institutlari yetarli emas;
- yashil tadbirkorlar ko‘pincha moliyaviy resurslarga ega bo‘lmagani uchun kredit olishda ko‘proq xavf sifatida qoraladi;
- loyiha muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, yo‘qotishlarni qoplaydigan davlat yoki xususiy sug‘urta mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan;
- yashil tadbirkorlar ekologik texnologiyalar, ekologik standartlar va moliyalashtirish imkoniyatlari haqida to‘liq ma’lumotga ega emas;
- maxsus treninglar, maslahat markazlari va moliyaviy savodxonlik dasturlarining yetishmasligi muammo bo‘lmoqda;
- yashil iqtisodiyot va yashil tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunlar va normativ hujjatlar yetarlicha mukammal emas yoki amalda to‘liq ishlamayapti;

- ekologik jihatdan toza mahsulotlar va xizmatlar uchun soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlari sust;

- banklar yashil loyihalarni yuqori xavfli deb baholab, ularga kredit ajratishdan tiyiladilar;

- yashil moliya instrumentlarini (masalan, yashil obligatsiyalar, barqarorlik kreditlari) amaliyotga joriy etishda sustlik kuzatilmoqda;

- global yashil klimat fondi (GCF), UNDP, GEF kabi tashkilotlar bilan doimiy va tizimli hamkorlik zaif;

- O'zbekiston yashil moliyalashtirish loyihalariga xalqaro grantlar va texnik yordamni jalb qilishda raqobatbardosh emas;

- moliyalashtirilgan yashil loyihalarning natijalarini baholash va monitoring qilish tizimi zaif, bu esa samaradorlikni tahlil qilishda muammolar keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida yashil tadbirkorlikni rivojlantirish va moliyaviy rag'batlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bu sohada moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi, bank sektorining past faolligi, soliq imtiyozlari va kafolat tizimlarining yetarli darajada shakllanmagani asosiy to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan samarali hamkorlikning yo'qligi, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi va axborot resurslarining cheklanganligi yashil tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Jumladan, davlat tomonidan yashil moliyaviy instrumentlarni joriy etish, soliq va subsidiya tizimini takomillashtirish, bank sektorini rag'batlantirish, xalqaro grantlar va investitsiyalarni jalb qilish, hamda axborot va maslahat tizimlarini rivojlantirish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida moliyaviy mexanizmlarning roli katta. Ayniqsa, hududlarda kichik biznes subyektlarini ekologik loyihalarga jalb etish uchun ularni moliyaviy jihatdan rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat, moliya muassasalari va xalqaro hamkorlik vositasida bu yo'nalish rivojlanishi mumkin. Yashil tadbirkorlikni moliyaviy

qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlashga, balki iqtisodiy o‘sish va innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi. Bu esa O‘zbekistonning barqaror taraqqiyot yo‘lida muhim strategik yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4477-sonli Qarori, 2019-yil 4-oktabr – “Yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
2. Islomov I. “O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot va uning moliyaviy mexanizmlari” // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2022, №4.
3. Toshmatova D. “Yashil tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash omillari” // Yosh olimlar jurnali, 2023.
4. Zenghelis D. (2016). “The Role of Finance in Green Growth”. Grantham Research Institute on Climate Change and the Environment.
5. Karimova M. “Yashil iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash strategiyalari”, PhD dissertatsiyasi, TDIU, 2021.
6. Mamatqulov A. “Yashil moliyalashtirish mexanizmlarining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyati” // Ilmiy-amaliy iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2023.
- Sodiqova Z. “Green Business Development in Uzbekistan: Challenges and Prospects” // International Journal of Economics & Management Studies, 2022.